Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 316
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

YANGI O'ZBEKISTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT BARPO ETISHDA XOJAGON IRFONIY MEROSINING AHAMIYATI

Dilshoda Vohid qizi Vohidova*
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
✉ vohidovad@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O'zbekistonda ma'rifatli va ma'naviy barqaror jamiyat qurish sharoitida Xojagon irfoniy manbalari hamda ta'limotining ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy asos solgan Xojagon tariqatining "xilvat dar anjuman", "hush dar dam" kabi poydevor tamoyillari insonni jamiyatdan uzilmagan holda ijtimoiy faollikka, halol mehnat qilishga hamda doimiy ma'rifatga intilishga undashi bugungi kun ma'naviy islohotlari kontekstida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

Yangi O'zbekiston, ma'rifatli jamiyat, Xojagon tariqati, Abdulxoliq G'ijduvoniy, irfoniy meros, xilvat dar anjuman, ma'naviy barqarorlik, ijtimoiy faollik, g'oyaviy immunitet.

DOI: 10.5281/zenodo.21835509

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida hamda Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy va siyosiy omillar, balki ma'naviy-ma'rifiy qadriyat hamda milliy irfoniy meros bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu bois zamonaviy taraqqiyot konsepsiyalarida ma'rifatli jamiyatni shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy va ijtimoiy-falsafiy masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ma'rifatli jamiyat – bu yuksak bilim, chuqur axloqiy mezonlar, ma'naviy poklik hamda ijtimoiy mas'uliyat tamoyillari ustuvor bo'lgan jamiyatdir. Bunday jamiyatni barpo etishda milliy va diniy-ma'naviy merosimiz, xususan Xojagon irfoniy ta'limotining ilg'or g'oyalari muhim nazariy va amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo va Buxoro intellektual tarixida tasavvufiy ta'limotning yetakchi yo'nalishlaridan biri bo'lgan Xojagon tariqati inson kamoloti, ma'naviy poklanish hamda jamiyat farovonligiga xizmat qiluvchi mukammal g'oyalar tizimini shakllantirgan [1.38]. Ushbu tariqat namoyandalari insonni nafaqat ruhiy jihatdan komillikka erishishga, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishga, halol va halol peshona teri bilan mehnat qilishga, shuningdek adolat, kamtarlik hamda saxovat kabi yuksak insoniy fazilatlarni hayot mezoniga aylantirishga da'vat etganlar. Shu jihatdan olib qaraganda, Xojagon irfoniy merosining ma'rifiy-axloqiy g'oyalari Yangi O'zbekistonda uchinchi renessans poydevorini qo'yish va ma'rifatli jamiyatni shakllantirishda muhim ma'naviy va mafkuraviy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy-ma'rifiy islohotlar kontekstida ma'rifatli jamiyat barpo etishda Xojagon irfoniy merosining mazmun-mohiyati, uning yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini boyitishdagi o'rni va zamonaviy jamiyat barqarorligidagi ahamiyati ilmiy va falsafiy jihatdan tahlil qilinadi; shuningdek, ushbu ta'limotda ilgari surilgan "xilvat dar anjuman" kabi ilg'or tamoyillarning bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi dolzarbligi atroflicha yoritib beriladi.

Biz yuqorida ma'rifatli jamiyatni barpo etishda barkamol, jismoniy va ruhiy jihatdan mukammal insonlarni tarbiyalashga xizmat qiluvchi Xojagon tariqatining tasavvufiy qarashlarini ko'rib chiqdik. Oldingi

fikrlarning mantiqiy davomi sifatida ushbu tariqat g‘oyalarining ma’rifatli jamiyat konsepsiyasi bilan qanchalik uyg‘un ekanini hamda undan foydalanish zaruriyatini falsafiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni jismonan va ma’nan barkamol qilib tarbiyalash, ularda ajdodlarga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish va ularning dunyoqarashini yot g‘oyalardan himoya qilishda buyuk ajdodlarimiz merosi, xususan, mutasavvif Abdulxoliq G‘ijduvoniy ta’limoti alohida o‘rin tutadi [2.45]. Uning insonparvarlik va ma’naviy kamolotga undovchi g‘oyalari jamiyatda ma’rifiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xojagon tariqati ta’limotida insonning o‘zini anglash, ma’naviy poklanish va komil insonni tarbiyalash masalalari markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu g‘oyalar bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi bilan to‘liq hamohangdir. Chunki ma’rifatli jamiyatni shakllantirish jamiyat barqarorligi, madaniy taraqqiyot va ijtimoiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Ma’rifatli jamiyatni shakllantirish bir necha muhim omillarga bog‘liq bo‘lib, birinchidan, ta’lim va ilm-fanning ustuvorligi jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveri hisoblanadi; ikkinchidan, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi; uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari faolligi va davlat siyosatining ma’rifatga tayanishi jamiyatning barqaror rivojiga xizmat qiladi [3.47].

Aksincha, jamiyatda ilmga e’tiborning pasayishi, bilimga ehtiyojning susayishi va ma’rifat qadriyatlarining yetarli darajada qadrlanmasligi intellektual rivojlanishga to‘sqinlik qiladi. Bu holat ijodkorlikning pasayishiga, ta’lim tizimining eskirishiga va madaniy-axloqiy muhitning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli Yangi O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ma’rifatli avlodni tarbiyalash maqsadida ta’lim tizimini zamon talablari asosida rivojlantirish, yoshlar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish hamda jamiyatda ilm-fan va ma’rifat qadriyatlarini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda [4.74].

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi jamiyat a’zolaridan bilimli, yuksak axloqli, madaniyatli hamda chuqur ilmiy dunyoqarashga ega bo‘lishni talab etadi. Bu jarayonda ta’lim tizimi yoshlarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Yoshlar tafakkurining rivojlanishida qadriyatlar tizimi, dunyoviy va diniy bilimlarning o‘rni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a’zolarining bilim darajasi, uni o‘zlashtirish va yangi bilim yaratish imkoniyatlari esa milliy madaniyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Aql, bilim va ta’lim insonlarni birlashtiruvchi kuchli omil bo‘lib, har qanday modernizatsiya jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Aql insonning bilish, fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini ifodalaydi hamda uning ijtimoiy hayotga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi [5.75]. Shu sababli bugungi murakkab davrda jamiyat taraqqiyoti va barqarorligini ta’minlashda buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Ma’rifatli insonni tarbiyalashda ma’naviy-axloqiy va aksiologik qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Bunday shaxs jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etadi va ijtimoiy muhitning rivojiga xizmat qiladi. Shu bois ma’rifatli avlodni tarbiyalash uchun zarur qadriyatlarni belgilash va ularni yoshlar ongiga zamonaviy usullar orqali singdirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Chunki jamiyatda malakali va bilimli mutaxassislar qanchalik ko‘p bo‘lsa, taraqqiyot shunchalik tez va samarali bo‘ladi. Ma’rifat ilm-fan va bilim olish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bilimli inson ma’rifatli inson sifatida e’tirof etiladi. Tarixiy manbalarda ham bilimning ahamiyati alohida ta’kidlangan [6.74]. Masalan, qadimgi yunon faylasufi Platon bilimni inson hayotidagi eng muhim kuch deb ta’kidlagan bo‘lsa, nemis faylasufi Georg Vilgelm Fridrix Gegel bilim va tafakkurni inson hayotining asosiy negizi sifatida e’tirof etgan. Shuningdek, buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy ham ilm inson uchun najot manbai ekanini alohida qayd etgan.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish, ilmiy salohiyatni oshirish va ma’rifatli avlodni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim sohasidagi islohotlar jamiyatni modernizatsiya qilish, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda islom madaniyati namoyandalari qoldirgan boy ma’naviy merosdan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega [7.71]. Xususan, tasavvuf ta’limotining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan Xojagon tariqati insonparvarlik, komil insonni tarbiyalash va ma’naviy poklanish g‘oyalari bilan ajralib turadi. Ushbu tariqat ta’limotida insonning sha’ni va qadr-qimmati yuksak qadrlanadi hamda insonni hurmat qilish, uning huquq va erkinliklarini e’zozlash muhim tamoyil sifatida qaraladi. Tasavvuf ta’limoti islom dini manbalari – Qur’oni Karim va hadislar asosida shakllangan bo‘lib, unda insonlarning tengligi, birodarligi va o‘zaro hurmat tamoyillari alohida o‘rin

tutadi.

Ma’rifatli jamiyatni shakllantirish jarayonida ta’lim tizimini rivojlantirish, ilm-fanga investitsiya kiritish hamda buyuk ajdodlarimizning ma’naviy merosidan samarali foydalanish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Global davrda ilm-fan va taraqqiyot rivojlangan bo‘lsa-da, jamiyatda noto‘g‘ri ishlar va notinchlikka sabab bo‘luvchi kuchlar saqlanib qolmoqda. Shu bois odamiylik, inson qadri va hurmatini yuqori tutish, o‘zaro mehr-muhabbat va do‘stlik muhiti yaratish, yomon kuchlardan uzoq turish muhimdir [8.43].

Xojagon tariqatida insonning haqiqiy qadri uning qalbi, niyati, odob-axloqi va ezgu amallari bilan o‘lchanadi. Qalb pokligi, niyatning to‘g‘riligi va amalni so‘zga mos qilish orqali imon saqlanadi. Tanni saqlash – islomiy poklik va shariat talablariga rioya qilish, ruhni saqlash – barkamollikka erishish, Tavhid esa Allohni tan olish va qadrlashdir. Insonning vazifasi yer yuzini moddiy va ma’naviy obod qilishdir. Moddiy obodlik mehnat, dehqonchilik va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish orqali, ma’naviy obodlik esa ilm-fan, madaniyat, odob-axloq va ibodat bilan ta’minlanadi. Shu orqali jamiyatda tinchlik, adolat va totuvlik mustahkamlanadi [9.38].

Abdulxoliq G‘ijduvoniy antropologik ta’limotida inson ikki olamga mansub bo‘lib, bular jismoniy “Olami asg‘ar” (kichik olam) va ruhiy “Olami akbar” (katta olam)dir. Xojagon tariqatida insonlar Nuriy va Noriy turlarga ajratiladi; Nuriylar ruhiy tomonga e’tibor berib, nafsni cheklaydi, Noriylar esa nafsga berilgan, hirs va g‘azabga moyil insonlardir. Faqat Nuriy inson haqiqiy ruhiy kamolga yetadi. Xojagon ta’limotida qalb pokligi, riyo va kibrdan xoli bo‘lish, barcha amallarda pok va halol yashash zarurati ta’kidlanadi. Hudbinlik insonni ruhiy rivojlanishdan to‘sadigan asosiy to‘siq bo‘lib, undan xoli bo‘lgan inson yaxshilik, rahmdillik va adolat bilan boshqalarga yordam beradi.

Tasavvufda va Xojagon tariqatida inson “o‘zini bilish” orqali kamolotga erishadi. Bu jarayon ruhiy va ma’naviy yetuklik, aql, idrok va hissiy kamolot orqali amalga oshadi. Barkamol inson so‘zini ehtiyot bilan ishlatadi, boshqalarga zarar yetkazmaydi hamda o‘zining shirinso‘zligi va xushxulqligi bilan jamiyatda ijobiy rol o‘ynaydi.

Ma’rifatli jamiyatda bilim va tafakkur ustuvor bo‘lib, ilm-fan taraqqiyotning asosiy omiliga aylanadi. Yoshlar nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmni ham puxta o‘rganishi zarur. Zohiriy ilm dunyoni bilish bo‘lsa, botiniy ilm ma’rifatni anglash hisoblanadi. Axloq va ma’naviyat ustuvorligi ma’rifatli jamiyatni boshqa jamiyatlardan ajratib turadi. Adolat, insonparvarlik, tinchlik va hamjihatlikni qadrlash ma’rifatli jamiyatning asosiy mezonidir. Abdulxoliq G‘ijduvoniy ta’limotida axloqni tuzatish, muhabbat, fazilatli odatlar va kamchiliklardan xoli bo‘lish asosiy masalalar sifatida ilgari suriladi.

Ma’rifatli jamiyat ijtimoiy adolat va fuqarolik mas’uliyatini mujassam etadi. Adolat tamoyili barcha darajalarda qo‘llanilib, insonning huquq va manfaatlarini eng oliy qadriyat sifatida himoya qiladi. Bu tamoyil fuqarolik jamiyati poydevorini mustahkamlaydi va jamiyat barqarorligini ta’minlaydi. Xojagon tasavvufiy tariqatida jamiyat obodligi, adolat hamda har bir insonning jamiyatning gullab-yashnashiga foyda keltirishi, aks holda zarar yetkazmasligi eng muhim fuqarolik burchi hisoblanadi. Mutasavvif bunday ongni faqat xilvatda emas, balki jamiyat hayotida faol ishtirok etish, “shayxlik eshigini yopib, suhbat eshigini ochish” tamoyili orqali namoyon qiladi.

Abdulxoliq G‘ijduvoniy ruboiylarida inson, borliq, bilish, tafakkur, odob-axloq, qadriyat, hayot ma’nosi, yaxshilik va yomonlik, adolat, halollik hamda poklik kabi masalalarni atroflicha yoritgan. Jamiyat tinchligi ulamolarning ustuvor qadriyati bo‘lib, bu fikr Yusuf Hamadoniy asarlarida ham alohida ko‘rsatilgan. Tinchlik “yetti qavat osmon va yerning butun mahluqoti” tomonidan qadrlanishi lozim bo‘lgan umuminsoniy qadriyatdir. “Vasiyatnoma”, “Odobi tariqat”, “Maqsad as-solikin” risolalarida muallif barcha musulmonlarni mehribonlik, zaiflarga ko‘mak, adolat va ehsonga chaqiradi. Haqiqiy taqvodor inson hayotida ehson va yaxshilikni asosiy maqsad qilishi kerak. Poklik ruhiy-axloqiy mahiyatga ega bo‘lib, u yomon xulqdan qutulish va faqat yaxshilikni tarbiyalashdir. Chunki faqat zohiriy ibodat bilan ichki yomonlikni yuvib bo‘lmaydi [10.117].

Vijdon inson qalbidagi Xudo sadosi bo‘lib, u yaxshilik va yomonlikni ko‘rsatadi hamda insonni axloqiy yo‘naltiradi. Vijdonli amal insonga ruhiy xursandchilik beradi, yomon qilingan ishlar esa noqulaylik va uyat hissi uyg‘otadi. Shu sababli Xojagon tariqatida shogirdlar doimo ehson va yaxshilik qilishga chaqiriladi. Abdulxoliq G‘ijduvoniy ta’limotiga ko‘ra, inson jamiyatda faol ishtirok etishi, odamlarni himoya qilishi va ularning

hayotini yengillashtirishi kerak. Agar moddiy imkoniyati bo‘lmasa, halol mehnat bilan yashashi lozim. “Dast ba koru, dil ba yor” tamoyili har bir murid va fuqaro uchun asosiy vazifa sifatida berilgan. “Vasiyatnoma”da xalqqa nisbatan mehr-shafqat ko‘rsatish, pastkashlikdan qochish, insonparvarlik va adolat tamoyillari chuqur bayon etilgan.

Har bir mo‘minning qalbida to‘rt nur mavjud bo‘lib, bular tavhid nuri (Allohning birligini tan olish), ma’rifat nuri (bilim), imon nuri (yaxshi fazilatlar) va Islom nuri (yaxshi ishga chaqiruvchi)dir. Nafs istaklariga xilof ish tutish orqali haq yo‘lga intilish Islomning haqiqiy yuzidir. Ma’rifatli jamiyatning asosiy mezoni bilish, axloqiy qadriyat va mas’uliyat uyg‘unligi hamda tafakkur va vijdon orqali jamiyatni rivojlantirishdan iboratdir. Jamiyatda axloqiy qadriyatlar ichki intizom, ishonch va hamjihatlikni mustahkamlaydi, inson esa faqat davlat obyekti emas, balki uning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Xojagon tariqatida inson doimo tafakkurini rivojlantirib, har bir amalda bilimga asoslanishi hamda sidqi-ihlos bilan ishlashi zarur. Tafakkurning to‘rt turi mavjud bo‘lib, bular savob keltirmaydigan, bir yillik savob keltiradigan, yetmish yillik savob keltiradigan va faqat Alloh biladigan savob keltiradigan fikrlardir [11.17]. Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat barpo etishning asosiy funksiyasi axloqiy me’yorlar, ijtimoiy birlik, adolat, inson qadriyatlarini tarbiyalash va jamiyatning ichki intizomini ta’minlashdir. Bu jamiyat gnozeologik (bilish), ontologik (mavjudlik) va aksiyologik (qadriyat) asosga ega bo‘lib, bilim va ma’naviyat uyg‘unligi bilan shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’rifatli jamiyat barpo etish barqaror rivojlanish-ning mustahkam poydevori bo‘lib, u yoshlarda tanqidiy tafakkur, yuksak bilim, innovatsion intilishlar hamda iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot kafolatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ma’rifatli jamiyat nafaqat intellektual salohiyat, balki ma’naviy va axloqiy poklik tamoyillariga tayanib, globallashuv davrida milliy o‘zlikni asrash, ijtimoiy adolat hamda bag‘rikenglik muhitini mustahkamlaydi. Uning muvaffaqiyatli amaliyoti esa ta’lim-fan ustuvorligi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar renessansi va fuqarolik institutlarining faolligiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda Xojagon irfoniy ta’limotining “xilvat dar anjuman” va “dast ba koru, dil ba yor” kabi bunyodkor g‘oyalarini zamonaviy islohotlar bilan integratsiya qilish ma’rifiy va ma’naviy barqaror jamiyat qurishning eng samarali omilidir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Navro‘zova G.N. Xojagon tariqati va inson kamoloti. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 38.
2. G‘ijduvoniy Abdulxoliq. Vasiyatnoma / Tarjimon va mas’ul muharrir: H.Boltaboyev. – Toshkent: Yozuvchi, 2002. – B. 45.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 47.
4. Jo‘rayev N. Jamiyat taraqqiyotining ma’naviy-ma’rifiy omillari va zamonaviylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020. – B. 74.
5. Falsafa: qomusiy lug‘at / Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2014. – B. 75.
6. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B. 74.
7. Usmonov Q. va boshq. O‘zbekiston tarixi va ma’naviyati. – Toshkent: Moliya, 2019. – B. 71.
8. Turdiyev B.S. Ma’rifatli jamiyatni shakllantirishda irfoniy qadriyatlarning o‘rni. // Falsafa va huquq jurnali. – Toshkent, 2022. – №2. – B. 43.
9. Babadjanov B.M. Tasavvuf va Xojagon silsilasi tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2010. – B. 38.
10. Rahimov S. Abdulxoliq G‘ijduvoniyning ma’rifiy-axloqiy ta’limoti. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2017. – B. 117.
11. Muhamedov N. Markaziy Osiyoda islomiy ma’rifat va irfoniy maktablar. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2016. – B. 17.